

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA TEXNIK SOHA MUTAXASSISLARINING LEKSIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Yarmatova Yulduz Ravshanovna

Termiz muhandislik-texnologiya instituti katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12568690>

Annotatsiya. Ushbu maqola xorijiy tillarni o'qitishda texnik soha mutaxassislarining leksik kompetensiyasini rivojlanirish, chet tilini o'qitishning ahamiyati, maqsadi va muammolariga bag'ishlangan texnik universitetlar. Bundan tashqari, ushbu maqolada o'qituvchining darsni tashkil etishdagi roli va o'quvchining dars samaradorligiga ta'siri.

Kalit so'zlar: chet tili, ta'lif tizimi, zamonaviy va yangi texnologiyalar, o'qituvchi, o'quvchi, jarayon o'qish, maqsad, kamchiliklar, tajriba, o'qitish natijasi.

DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE OF TECHNICAL SPECIALISTS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Abstract. This article is devoted to the development of lexical competence of specialists in the technical field in the teaching of foreign languages, the importance, purpose and problems of teaching a foreign language technical universities. In addition, in this article the role of the teacher in the organization of the lesson and the influence of the student on the effectiveness of the lesson.

Keywords: foreign language, educational system, modern and new technologies, teacher, student, process Reading, goal, shortcomings, experience, result of training.

РАЗВИТИЕ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ТЕХНИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация. Данная статья посвящена развитию лексической компетентности специалистов технической сферы в обучении иностранным языкам, значению, целям и проблемам обучения иностранному языку в технических вузах. Кроме того, в этой статье рассматривается роль учителя в организации урока и его влияние на эффективность урока.

Ключевые слова: иностранный язык, система образования, современные и новые технологии, учитель, ученик, процесс обучения, цель, недостатки, опыт, результат обучения.

Bugungi kunda ta'lif siyosati yo'naliishlarini belgilashda qabul qilinayotgan qarorlar keng ma'noda mamlakatning ilmiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy ehtiyojlariga ta'sir qilmoqda. Dunyoning ba'zi mamlakatlarida 1990 yillardan beri joriy qilinib kelinayotgan talabalarga erta

yoshda chet tilida ta'lif berish tizimi bizning mamlakatimizga ham muvofiq kelmoqda va 2017–2018 yillarda bu sohaga taalluqli ba'zi qonuniy hujjatlarni qabul qilish taklif qilindi.

Tilni o'rganishda taqdim etiladigan har bir material ma'noli bo'lishi va bog'langan va zarur o'zaro bog'langan bo'lishi lozim. Bunday holda chet tili o'qituvchilardan berilgan auditoriyaga dars beradigan boshqa o'qituvchilar birga hamkorlikda ishlashlari va rejalarini birga tuzishlarini taqozo etiladi.

Chet tili faqat dars doirasi bilan cheklangan tizimlarda til muhitida muloqot qilish imkoniyatining vaqtini va til qanchalik sur'atda o'qitilayotgani jiddiy ahamiyatga ega. Tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish va so'z boyligini egallash bilimlarini olish uchun va ushbu barcha ko'nikma-malakalarni chet tilida akademik nuqtai nazardan to'g'ri va benuqson qo'llay bilish uchun 5-7 yil mobaynida darslar muntazam va samarali o'tkazilishini nazarda tutadigan o'quv dasturi bo'lishi lozim.

Chet tillarni o'rganishning dastlabki bosqichlarida talabalarning ona tillarining xususiyatlari ta'siri kuzatilishi mumkin. «Tillararo o'zaro faoliyat» deb nomlanadigan bunday vaziyat talabaning xotirasida o'rashgan ona tili va u o'rganishni boshlagan boshqa til orasida doimo o'zaro aloqa mavjudligini ko'rsatadi. Bundan tashqari o'qituvchi talabalarga chet tillarni o'rgatish jarayonida ularni yoshiga mos qiziqarli ta'limiylar interaktiv o'yinlardan foydalanishi, shuningdek, talabaning nutqini rivojlantirib, so'z boyligini oshirish uchun texnik vositalardan foydalanishi va individual yondashuvi muhimligini unutmasligi kerak. Chet tilini o'rganayotganda so'zlar va qoidalarga e'tibor berib, ular orasidagi bog'liqlikni misollar yordamida tushunish tilni tez va oson o'rganishga yordam beradi. Bundan tashqari talaffuz chet tilini o'rganishning muhim tarkibi hisoblanib bunda texnik vositalarni ishga solish yaxshi natija beradi.

Tilda millatning odob-axloqi, orzu-umidi, jamiyatning ma'naviy fazilatlari o'z ifodasini topadi. Tilga bo'lgan ehtirom esa, har bir kishining xalqi, millatiga bo'lgan ehtiromidir. Insonning dunyoni idrok etishida uning til bilishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Boshqa xorijiy tilni yaxshi o'rganmoqchi bo'lgan kishi avvalo o'z ona tilini mukammal bilishi, e'zozlashi, sevishi, qadrlashi, uning sofligi, go'zalligi, qadr-qimmati uchun kurashishi milliy qadriyatlarning eng muhimidir. O'z tilida xalqining tarixi, madaniyati, urf-odati, adabiyoti hamda san'atini bilishning ahamiti juda katta.

Bizga ma'lumki, bugungi kunda xorijiy tilni o'rgatish va o'rganish har bir sohada dolzarb mavzuga aylandi. Xorijiy tilni o'qitish maqsadlaridan biri til materiallaridan foydalanib, nutq faoliyatining turlariga, berilgan mavzularga muomala qilishga o'rgatishdan iboratdir. Bu fanni o'qitish boshqa fanlarni o'qitishdan tubdan farq qiladi, chunki bu fan o'ziga xos xususiyatga ega. Har bir soha yoki faoliyatni o'rganish mehnat talab qilgani kabi, xorijiy tilda muomala qilish

talabandan murakkab ko'nikma va malakalarning shakllanish va rivojlanishini talab qiladi. Hozirda, xorijiy tilning o'qitish metodikasi, ilmiy-texnika jarayoni rivojlangan bir paytda, zamonaviy ta'lif tizimini audio, video-kompter texnikasining yordamisiz tasavvur qilish mumkin emas.

Bu faoliyat ayni paytda juda ko'p maktablarda zamonaviy yo'lga qo'yilishi bilan bir qatorda, afsuski ba'zi shahar va viloyat maktablarida ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Odatda, o'rtta maktab o'quvchilaridan xorijiy til ta'limining birinchi bosqichida tinglab tushunish, gapirish va o'qish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish talab qilinadi. Fanni o'rganishda ona tilining ijobiy (grammatik o'xshash tomonlari) yoki salbiy ta'siri (grammatik jihatlarining farqlari) va uni ta'lif jarayonida hisobga olish zaruriyati ham muhim xususiyatlardan biridir. Shu o'rinda bir narsani aytish kerakki, bugungi kunda, ayniqsa texnik oliv o'quv yurtiga kelayotgan ko'pgina talabalar hatto o'z ona tilini yaxshi o'zlashtirmagan holda kelishi, o'z ona tilidagi so'zlarni imlo xatolari bilan yozishi, o'z ona tili grammatikasidagi tushunchalarni tushunmasligi xorijiy tilni o'rgatishga, mukammal o'zlashtirishga xalaqit beradi, bu esa oliv o'quv yurtlarida xorijiy tilni o'qitishda muammolar keltirib chiqaradi. Bunda albatta uzuksiz ta'limning o'rnini ham beqiyosdir, chunki o'quvchi maktabda olgan bilimini lisey yoki kasb-hunar kollejida davom ettirsa, keyingi bilimini oliv ta'limda mukammallashtirsagina biror maqsadga erishiladi, agar oliv ta'limga kelgan talabaning xorijiy til bo'yicha bilimi juda past ko'rsatkichda bo'lsa yoki umuman bo'lmasa, unga darhol oliv ta'limga xos mukammallashtirilgan dars jarayoni yordam beradimi? Yo'q, aksincha, uni darsga bo'lgan qiziqishini so'ndiradi, chunki talabalarni aksariyatini kuzatganda o'ziga qiyinchilik tug'diradigan, tushuna olmaydigan fanidan uzoqlashgisi keladi. Dolzarb muammolardan yana biri talabalarni xorijiy tilga qiziqtirish va ko'proq jalb qilish. Darsning qiziqarliligi ta'limning mazmuni, printsiplari va rejalar, shuningdek interfaol usullardan foydalanish metodlari bilan belgilanadi. Biz bilamizki, darsni qiziqarli o'tishi o'qituvchiga bog'liq, bu to'g'ri albatta, lekin, pedagog turli o'yinli, taqdimotli darsni tashkil qilsa-yu, talaba tomonidan ishtirokning qoniqarliligi yoki umuman qiziqishning yo'qligi bu pedagogga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunki qars ikki qo'ldan chiqadi. Ma'lumki, darsda o'qituvchi va talaba ishtirok etadi. Talaba nuqtai nazaridan dars o'qish va o'rganish jarayonidir.

Ammo, dars faqatgina o'qituvchining tashkiliy pedagogik harakati bo'lmay balki, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining faoliyati hamdir. Ba'zi talabalar borki, ularning fikricha tili o'rganilayotgan davlatga bormasa yoki o'z sohasida shu tilni qo'llamasra u tilni o'rganish kerak emas. Vaholanki, xorijiy til darslarini o'rgatishning yana bir maqsadi talabalarni chet tilidan muomala sifatida foydalanishga o'rgatishdir, xorijiy til orqali talabalarga vatanparvarlik va Vatan bilan faxrlanish hissini tarbiyalash, ularning dunyoqarashini o'stirish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish asosiy vazifalardan biridir. Shuni ham aytish joizki, darslarni to'g'ri rejalshtirish

(eng yaxshi va oson yo'l bilan tushuntirish), mashg'ulotlarni mantiqiy ulanishini yo'qotmaslik uchun uning tartibini to'g'ri belgilab olish (tarqatma materiallarning ketma ketligi), guruhlarni to'g'ri taqsimlash (bilim saviyasining muvozanatini hisobga olish) o'z maqsadimizga erishishimizning asoslaridan biridir. Shu bilan birga, chet tilida harakat qilish qobiliyati, talabalarning maqsadli tilda tegishli texnik ma'lumotlarni olishi, ya'ni umumiyligini til lug'atini o'rganish ham ahamiyatga ega. Har bir darsda talabalarning bilimlarini o'zlashtirishlariga va o'z bilimlarini amalda qo'llay oladigan bo'lishlariga erishilishi, ularda ijodiy faoliyat ko'nikmasi hosil qilish va shaxs fazilatlarini tarbiyalab berish maqsadi qo'yildi. Shuning uchun avvalo, talabaga xorijiy tilning ahamiyati, uning inson hayotidagi o'rni naqadar muhimligini tushuntirgan holda, boshlang'ich ta'limni to'g'ri va aniq berish kerak.

REFERENCES

1. Педагогик технологиялар тўплами. А.С. Аскаров Тошкент, 2004й.
2. “Таълим жараёнига методик ёндошув” Омонов Х.Т., Хўжаев Н.Х. Тошкент 2012й.
3. Djuraeva Z. SH., Abdulxaeva M. M. “Til bilmoq — dunyoni anglamoq, degani”
4. Matmurotova Z. “Chet tillarni o‘qitishda rolli o‘ yinlardan foydalanish”.
5. Masodikova Z. X., Omonboeva M. O. “Chet tillarini o‘qitishda ta’lim va tarbiyaning birligi”